



Volume 3, Issue 3(16), 2023

# Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

**Chief Editor:**

**Sharipov Shavkat Safarovich**

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

**Deputy Chief Editor:**

**Sodikov Khamid Makhmudovich**

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

**Orishev Jamshid Bahodirovich**

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

**Members of the editorial board:**

**Ubaydullaev Sadulla**, dotsent

**Ismailov Tuychi Djabbarovich**, dotsent

**Kholmatov Pardaboy Karabaevich**, dotsent

**Umarov Rakhim Tojievich**, dotsent

**Murtazaev Melibek Zakirovich**, dotsent

**Abduraimov Sherali Saidkarimovich**, dotsent

**Taylanov Nizom**, senior teacher

**Tagaev Khojamberdi**, senior teacher

**Tugalov Farkhod Karshibayevich**, dotsent

**Alibaev Turgun Chindalievich**, PhD

**Yusupov Mukhammad Makhmudovich**, PhD

**Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich**, PhD

**Irmatov Fozil Muminovich**, PhD

**Editorial Representative:**

**Jamshid Orishev**

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK  
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali

Журнал “Физико-технологического образование”

“Journal of Physics and Technology Education”

**Indexed By:**



**Published By:**

<https://phys-tech.jdpu.uz/>  
Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2023-06-05

**MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ**

<b>№</b>	<b>MUALLIFLAR/ AUTHORS/ АВТОРЫ</b>	<b>MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ</b>	<b>SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ</b>
1	<i>Umarov Rahim , Yusupov Kirmon</i>	<i>Sharq mutafakrlarining aqliy mehnat va tarbiya haqidagi qarashlari</i>	5-9
2	<i>Umarov Rahim, Isoqov Shohruh</i>	<i>Xalq hunarmandchiligi bo'yicha mashg'ulotlarni otkazish metodikasi</i>	10-14
3	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanini o'qitishda internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlari</i>	15-19
4	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanida o'quv jarayonida elektron o'quv vositalaridan foydalanish metodikasi</i>	20-23
5	<i>Абдувасиев Садрор Баҳром ўғли</i>	<i>Альтернативные источники энергии-перспективы их использования и развития в узбекистане</i>	24-27
6	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom ugli</i>	<i>Methodology for using electronic learning tools in the educational process on the subject "Physics"</i>	28-31
7	<i>Igamqulova Zilola , Umirov Javlonbek</i>	<i>Oy tutilishi va uning shartlari</i>	32-34
8	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Modaning tarkibi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlari</i>	35-38
9	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Jamiyat hayotida liboslarning o'rni</i>	39-41
10	<i>Yo'ldoshev Mirjalol , Allamuradov Husan, Rustamov Yoqubjon</i>	<i>Fotorezistorlarni dastur yordamida boshqarishni talabalarga o'rgatish</i>	42-46
11	<i>Orishev Jamshid, Majidova Hurriyat</i>	<i>O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda media ta'limning didaktik imkoniyatlari</i>	47-51
12	<i>Orishev Jamshid, O'rozov Bobur</i>	<i>Texnologiya fanini o'qitishda media ta'lim vositalaridan foydalanish</i>	52-55
13	<i>Rahimov Azizbek, Yaxshiboyevich</i>	<i>Savodxonlik elementlarini takomillashtirish - pedagogik muammo sifatida</i>	56-59
14	<i>Rahimov Azizbek, Parmanova Jumagul</i>	<i>Rassom asarlarida ayol timsoli</i>	60-64
15	<i>Rahimov Azizbek, Normatov Shuxrat</i>	<i>Milliy ruxdagi ganch o'ymakorligi</i>	65-69
16	<i>Ortiqova Ozoda, Rahmatva Shahlo</i>	<i>Korsetli libos tikish tarixi va rivojlanish bosqichlari</i>	70-73
17	<i>Alqorov Qodir Xolmatovich</i>	<i>o'quvchilarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda fizika bilan texnika fanlari</i>	74-78

		<i>aloqadorligi</i>	
18	<i>Alqorov Qodir, Yusupov Kermon</i>	<i>Ta’lim tizimida ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashning pedagogik muammolari</i>	79-82
19	<i>Tugalov Faxrod, Mamadiev Uraljon</i>	<i>Fizika yuqumida talabalarning ilmiy dunyolarini shakllantirishda muammoli ta’lim texnologiyalarining yurini</i>	83-86
20	<i>Tugalov Faxrod, Berkinova Chexroza</i>	<i>Fundamental fanlarning ahamiyati</i>	87-91
21	<i>G`ofurova Aziza Xidirnazar qizi</i>	<i>Oliy ta’limda ixtisoslik fanlarni o’qitish jarayonini takomillashtirish</i>	92-95
22	<i>Ortiqova Ozoda, Nazirova Nafisa</i>	<i>Milliy liboslarda bezaklar va pardoz-andozlarning ishlatilishi</i>	96-100
23	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>To’quvchilik san’ati va uning o’ziga xosligi</i>	101-104
24	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>Kreativ yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish prinsiplari</i>	105-107

## XALQ HUNARMANDCHILIGI BO’YICHA MASHG’ULOTLARNI OTKAZISH METODIKASI

*Umarov Rahim Tojiyevich, Isoqov Shohruh To’rabek o’g’li*

*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik ta’lim va tasviriy san’at fanlari kafedrası  
o’qituvchilari, Jizzax sh., O’zbekiston  
e-mail: umarovr@jdpu*

**Annotsiya:** Maqolada asosan umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi Texnologiya fanining xalq hunarmandchiligi bo’limida o’tiladigan mashg’ulotlarni maz muni, tuzilishi, tarkibi va o’tkazilish uslubi bo’yicha qo’yiladigan talablar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** Xalq hunarmandchiligi, texnologik ta’lim, DTS, dastur, texnologiya fani, o’qitish usullari.

**Аннотация:** В статье в основном рассматриваются требования к содержанию, структуре, составу и методике проведения занятий, проводимых на кафедре народных промыслов науки технологии в общеобразовательных средних школах.

**Ключевые слова:** Народные промыслы, технологическое образование, ДТС, программа, техника, методика обучения.

**Annotation:** The article mainly discusses the requirements for the content, structure, composition and methodology of conducting classes held at the Department of Folk Crafts, Science and Technology in secondary schools.

**Key words:** Folk crafts, technological education, DTS, program, technique, teaching methods.

Respublikamizning mustaqilikka erishishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlani shining barcha sohalarida, jumladan yoshlarni kelajak hayotga, mehnatga tayyor lash ishiga bevosita ma’sul bo’lgan xalq ta’limini ham tubdan isloh qilishni taqozo etdi. O’sib kelayotgan barkamol avlodni kelajak hayotga tayyorlashda xalq ta’limini tizimining umumiy o’rta ta’lim maktablari bo’g’inidagi ta’lim-tabiya maz muni, tuzilishini yangilash, hozirgi zamon ruhida isloh qilish muhim ahamiyat kasb etdi.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida texnologiya ta’limi buyicha qabul qilingan DTSni maqsadi yosh avlodni milliyligimizdan, utmishdagi va hozirda faoliyat kursatayotgan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga oid boshlang’ich bilimlar berish, boshlang’ich kunikma va malakalarga ega qilishdan iboratdir. Umumiy o’rta ta’lim maktab texnologiya ta’limi o’qituvchilari texnologiya ta’limi buyicha DTS asosida tuzilgan o’quv dasturlariga rivojlanish toqozosi bilan ayrim hollarda

asosli o‘zgartirish va qushimchalar kiritgan holda, yog‘och, metal, gazlama, va turli xildagi materiallarga ishlov berishga asoslagan xalq hunarmandchiligi sohalariga oid 5-9 sinf o‘quvchilariga boshlang‘ich bilimlar berish va boshlang‘ich kunikmalarga ega qildirishlari kerak.

Ushbu maqolada asosan umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi Texnologiya fanining xalq hunarmandchiligi bo‘limida o‘tiladigan mashg‘ulotlarni mazmuni, tuzilishi, tarkibi va o‘tkazilish uslubi bo‘yicha qo‘yiladigan talablar haqida fikr yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning mehnat va kasb tayyorgarligi tizimini amalga oshirish, bunda milliy, tarixiy hududiy, ma’naviy, madaniy va etnik xususiyatlarini yetarlicha ifodalash maqsadida umumiy o‘rta ta’lim DTS va dastur ishlab chiqildi. U O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti hamda umumiy o‘rta ta’limning texnologiya fani bo‘yicha malaka talablari asosida tuzilgan bo‘lib, Xalq ta’limi vazirining 2017-yil 3 iyundagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlarin itasdiqlash va amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 190-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-9-sinflari uchun amaliyotga joriy etiladi. Ushbu qaroriga ko‘ra umumiy o‘rta ta’limning texnologiya fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi Texnologiya fani boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida(1-4 sinflarda) umumlashgan holda, 5-9-sinflarda 2 ta yo‘nalishda olib borilishi belgilangan **“Texnologiya va dizayn”**, **“Servis xizmati”** yo‘nalishlarida o‘qitiladi. Bu yo‘nalishlarning har biri da xalq hunarmandchiligi nazarda tutilgan.

Yaxshi kasb egasi bo‘lish insonning eng katta ziynati bo‘lib, uning butun hayoti davomida juda katta foyda keltiradi. U farog‘atga, kamolotga yetadi va hunar tufayli izzat ikrom topadi. O‘z farzandlarini ilmi, hunarli qilib voyaga yetkazish millatimizga xos hislat bo‘lib, ota-bobolarimiz farzandlarining savodini chiqarish, hunarli qilish uchun eng kuchli ustalarga shogirdlikka berganlar, boshqa shahar va yurtlarga bilim olish uchun yuborganlar. Xalqimizda ilmu-hunar doimo ulug‘lanib kelingan, ilmi hunarli bo‘lishga doimo da’vat qilingan. Mehnat kishini halollikka, poklikka yetaklaydi.

Chunki xalqimizni xalq bo‘lib, millat bo‘lib shakillanganidan buyon uni mehnatsiz, hunarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuning uchun mehnatkash xalqimizning uzoq o‘tmishga-eramizdan avvalgi davrlarga borib taqaladigan hunarmandchiligi, milliy qadriyatlarini chuqur o‘rganish va yoshlarga o‘rgatish

zarur bo’ladi. Buni yoshlar ongiga singdirish uchun Texnologiya fanini o’qitishda xalq hunarmandchiligi sohalarini o’rganish muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli umumiy o’rta ta’lim maktablarining 2-9 sinflarida o’tiladigan texnologiya fani tarkibiga “Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi” bo’limi kiritilgan. Xususan 5-9 sinflardagi “Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati” yonalishlaridagi xalq hunarmandchiligi sohaları bo’yicha bo’lim kiritilgan bo’lib, bunda xalq hunarmandchiligi kasblari hamda ishlarini o’rganish ko’zda tutilgan. Amaldagi o’quv dasturida “Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi” bo’limiga tegishli soatdan vaqt ajratilgan bo’lib, bo’limga kiritilgan mavzularni o’rganish o’quv yili davomiga to’g’ri keladi. Jumladan, o’quvchilarga texnologiya ta’limi berish ishlarini takomillashtirish, mustaqil fikrlovchi va ijodiy ishlovchi yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi ham hukumatimizning diqqat markazida turibdi. Bundan ko’rinadiki biz o’quvchilarimizga bilim asoslarini berish bilan birga ularda topqirlik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash va ishlay olish kabi qobiliyatlarni ham rivojlantirishimiz kerak. Binobarin, hech kimga sir emaski, ko’pchilik yoshlar ning kelgusida kasb tanlashlari va o’z kasbining ustasi bo’lib yetishishlarida maktabda berilgan bilim, o’rganilgan mehnat malakalarining o’rni beqiyosdir.

Shuning uchun ham hozirgi paytda texnologiya fanini o’qitish jarayoniga ham yangi o’qitish usullarini tatbiq etish davr talabidir.

Texnologiya fanini o’qituvchisi oldida mavjud o’quv dasturlari asosida texnologiya ta’limi yunalishlari buyicha yog’och, metal, gazlama va turli xildagi materiallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik turlarini, qaysi tartibda o’quvchilarga o’rgatish kerak degan muammoni hal qilish vazifasi turadi.

Texnologiya fanini o’qitishda xalq hunarmandchiligi sohalarini o’rganish muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli umumiy o’rta ta’lim maktablarining 2-9 sinflarida o’tiladigan texnologiya fani tarkibiga “Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi” bo’limi kiritilgan. bo’lib, bunda xalq hunarmandchiligi kasblari o’rganish ko’zda tutilgan. Shuning uchun ham hozirgi paytda texnologiya fanini o’qitish jarayoniga ham yangi o’qitish usullarini tatbiq etish davr talabidir.

Texnologiya fani o’qituvchisi oldida mavjud o’quv dasturlari asosida texnologiya ta’limi yunalishlari buyicha yog’och, metal, gazlama va turli xildagi materiallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik turlarini, qaysi tartibda o’quvchilarga o’rgatish kerak degan muammoni hal qilish vazifasi turadi.

Ko’p yillik tajribalarimizdan kelib chiqqan holda, o’quvchi yoshlarni yosh xususiyatlari va hunarmandchilik texnologiyasi mohiyati buyicha milliy xalq hunarmandchilik sohalarini quyidagi tartibda o’qitish maqsadga muvofiqdir.

1. Milliy xalq hunarmandchilik sohalarini ularda ishlatilayotgan material turiga qarab umumlashtirish, yani yog’ochga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalarini, metalga ishlov berishga asoslangan, gazlamaga ishlov berishga asoslangan, turli xil material(tosh, suyak, tuproq gelina, plastmassa va boshqalar)larga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga bo’lish kerak

2. Texnologiya ta’limini yunalishlari bo’yicha yog’och va metall hamda gazlamalarga ishlov berishga ta’luqli hunarmandchilik sohalaridan o’quv dasturi buyicha qaysi birini o’qitishni soha murakkabligiga qarab, sinflarga taqsimlash kerak.

3. Yosh avlodni o’tmishdagi milliy xalq hunarmandchilik texnologiyalaridan imkon qadar xabardor qilish zaruriyati buyicha ayrim mavzularni tugaraklarda o’qitish lozim bo’ladi.

Yuqoridagilardan milliy xalq hunarmandchilik sohalarini ishlov beriladigan materiali bo’yicha umulashtiramiz va sinflararo o’qitish tartibini quyidagicha tuzish maqsadga muvofiq bo’ladi.

1. 5-7 sinflarda 2-4 soat o’quv miqdorida tegishli hunarmandchilik sohalarini kelib chiqish tarixi, ularda tayyorlanadigan mahsulotlar haqida utilishi kerak.

2. 8-9 sinflarda 14-10 o’quv soati miqdorida tegishli hunarmandchilik sohalarini buyicha hunarmandchilikda ishlatiladigan materiallar va asbob uskuna hamda moslamalar, hunarmandchilikda foydalaniladigan naqshlar, hunarmandchilikda mahsulotlar tayyorlashning texnologik usullari harida amaliy o’rgatish kerak bo’ladi.

3. Yog’ochlarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga yog’och uymakorligi, beshikchilik, aravachilik, egarchilik, sandiqchilik, sandalchilik, savatchilik, buyrachilik, karovot(suri)chilik, musiqa cholg’u asboblari tayyorlaydigan hunarmandchilik, mebelchilik, milliy rom va eshiklar, o’y jihozlari tayyorlaydigan hunarmandchilik va boshqalarni kiritish mumkin.

4. Metallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga degrezlik, pxtakorlik, quymakorlik, chilangarlik, zargarlik, pichoq sozlik, misgarlik, qandakorlik va boshqalarni kiritish mumkin.

5. Gazlamalarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga quroqchilik, kashtachilik, zarduzlik, choponchilik, duppichilik,



gilamchilik, kiygizchilik, kunchilik, muynachilik, suzana-pardachilik poyafzal kosibchiligi va boshqalar kiradi.

6. Turli xil materiallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga ganchkorlik, haykaltaroshlik, kulolchilik, suyak va tosh uymakorligi, tandirchilik, qandolatchilik va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumiy o’rta ta’lim maktablariga texnologiya ta’limi o’qituvchilarini tarbiyalab etishtirib beradigan oliy ta’lim tizimida xalq hunarmandchiligi bo’yicha amaliy mashg’ulotlarini tashkil qilish va o’tishda avvalom bor umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi texnologiya ta’limi bo’yicha o’qitishning samaravliylilik mezonini va yuqorida keltirilgan fikrlar e’tibordan chetda qoldirilmasa biz o’ylaymizki Texnologiya fani bo’yicha mashg’ulotlarda yaxshi natijalarga erishiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori.
2. Xalq ta’limi vazirining 2017-yil 3 iyundagi “Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o’quv dasturlarini tasdiqlash va amaliy yotga joriy etish to’g’risida”gi 190-sonli buyrug’i
3. Bulatov S.S. “O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati”. O‘quv qo‘llanma.–T.: “Texnologiya”, 1991y., 450b.
4. M.Z.Murtozayev. Xalq hunarmandchiligi texnologiyalarini o‘qitish. O‘quv qo‘llanma. –T.: «Fan va texnologiya», 2017, 188 bet.
5. Umarov R.T. va boshqalar. Xalq hunarmandchiligidan mashg’ulotlarni tashkil qilish va o’tkazish bo’yicha ayrim mulohazalar. “Ishlab chiqarishning texnik, muhandislik va texnologik muammolarining innovatsion echimlari” mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani materiallari to‘plami, JizPI, 3- qism (2022 yil 28-29-oktabr), 217-220 b.